

O'QUVCHILARIDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING NAMOYON BO'LISHI

Matyusupova Nodira Anvarovna

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Agressiya boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan xulq-atvorning har qanday shakli. Agressiya termini ko'p hollarda g'azab kabi negativ (salbiy) his-tuyg'ular bilan, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar bilan, hatto negativ ko'rsatmalar sirasiga kiruvchi irqiy va etnik xurofot bilan assotsiatsiyalanadi. Bu omillar natijasi zarar yetkazish bo'lgan xulq-atvorda albatta muhim rol o'ynashiga qaramay, ular bunday harakatlar uchun asos bo'la olmaydi. G'azab boshqalarga tajovuz qilish uchun aslo zaruriy shart bo'lib hisoblanmaydi, boshqacha qilib aytganda, ayrim holatlarda agressiya o'ta sovuqqonlik holatida yuzaga kelishi mumkin bolgani kabi, o'ta kuchli hayajon holatida ham paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, aggressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishlari yoki ularni yoqtirishlari umuman shart emas. Ko'pchilik odamlar o'zлari yoqtirgan insonlarga zulm o'tkazadilar.

Kalit so'zlar: tajovuz, tajovuzkor, zarar, g'azab, xulq-atvor, bosqinchi, zulm, haqorat, hujum, stress, mojaro, harakatlar.

Аннотация: Агрессия – это любая форма поведения, направленная на оскорбление или причинение вреда другому живому существу в ситуации, когда оно этого не хочет. Термин «агрессия» часто ассоциируется с негативными эмоциями, такими как гнев, с такими мотивами, как оскорбление и причинение вреда, и даже с расовыми и этническими предрассудками, которые включаются в негативные коннотации. Хотя эти факторы, безусловно, играют важную роль в поведении, приводящем к причинению вреда, они не могут быть основанием для таких действий. Гнев не считается необходимым условием агрессии по отношению к другим, иными словами, в ряде случаев агрессия может проявляться как в состоянии крайней холодности, так и в состоянии крайнего возбуждения. Агрессоры вовсе не обязательно ненавидят или любят людей, против которых они нападают. Большинство людей жестоки к тем, кто им нравится.

Ключевые слова: агрессия, агрессор, ущерб, гнев, поведение, агрессор, угнетение, оскорбление, нападение, стресс, конфликт, действия.

Abstract: Aggression is any form of behavior aimed at insulting or harming another living being in a situation where it does not want it. The term aggression is often associated with negative emotions such as anger, with motives such as insulting

and harming, and even with racial and ethnic prejudices, which are included in negative connotations. Although these factors certainly play an important role in the behavior that results in harm, they cannot be the basis for such actions. Anger is not considered a necessary condition for aggression towards others, in other words, in some cases, aggression can occur in a state of extreme coldness, as well as in a state of extreme excitement. Nor do aggressors necessarily hate or like the people they are aggressing at all. Most people are cruel to people they like.

Key words: aggression, aggressor, damage, anger, behavior, aggressor, oppression, insult, attack, stress, conflict, actions.

Inson agressiyasi ko'rinishlarining turli-tuman va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur xulq-atvorni o'rganishda D.Bass tomonidan taklif etilgan konseptual ramkalar bilan chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo'ldi. Uning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy Verbal, aktiv-passiv va to'g'ri-egri. Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ko'plab agressiv harakatlarni ular asosida tushuntirish mumkin. Masalan, bir kishining ikkinchisi ustidan otib, pichoqlab yoki kaltaklab zo'ravonlik qilishi ham jismoniy, ham aktiv, ham to'g'ri shkala sifatida kvalifikatsiyalanishi mumkin. Afsuski, ayrim oilalarda o'z otasi yoki onasining mehr-oqibatidan bebahra o'sayotgan bolalar ham yo'q emas. Ba'zi oilalarda esa ota-onva farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi achinarli holdir, albatta. Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxo'rlik, mehribonlik, sabr-toqat, mehr kabi xislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan ta'sir o'tkazadilar. O'z navbatida bu kabi xatti-harakatlar bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo'ladi. Tadqiqot jarayonida maktab o'quvchilarida agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi va uni bartaraf etish mexanizmlari haqida fikrlar tahlil qilindi. Maerpç Д. ning "Изучаем социальную психологию" nomli o'quv qo'llanmasi metodologik manba bo'lib belgilandi. Shu bilan birga Sh.M. Mirziyoyevning asarlaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi.

Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar maktab o'quvchilari orasida soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo'ldi. Maktab bolalarida agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko'pqirrali jarayon bo'lib, unga ko'pgina omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Agressiv xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi ta'sirida shakllanishi aniqlangan. Maktab bolalarida agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbara asoslanib to'playdi:

1. Nosog'lom oila muhiti. Ba'zi oilalarda ota-onan bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobjiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikning mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressMikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitning ta'sir darajasiga bog'liq hisoblanadi.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari, sinfdoshlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o'zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar esa o'z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. Bunday bolalar o'zini xo'rlangandek his qilib, o'zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tug'dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari — bugungi kunda bolalarning agressivligini kuchaytirishga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmoqda. Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar, ko'rsatuvarlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga ta'sir qilayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning ta'siri ham o'ziga xosligi inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Maktab bolalari internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma'lumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targ'ib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o'yinlarni o'ynash orqali o'zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo'lmoqdalar. Bir qator psixologlarning ta'kidlashicha, oiladagi iqlim, ota-onan o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ota-onan bilan farzand o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opasingillar, aka-ukalar bilan yaqinlik darajasi, farzand tomonidan qilingan noto'g'ri, yanglish xatti harakatlarga nisbatan ota-onaning agressiv reaksiyasi — oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar hisoblanadi. Maktab o'quvchilari orasida agressiv hulq-atvorning bartaraf etishda, avvalo shu narsa ko'zga tashlanadiki har qanday holatda ham bolalarni be'etibor qoldirish kerak emas, ayniqsa maktab o'quvchilarini, o'smir yoshlarni, chunki ular huddi endi o'sib kelayotgan novda kabidir. Uni qaysi tomonga shakllantirsa shunday shakllanib boradi.

O'quvchilarda agressiv hulq-atvorni yo'qotish yoki oldini olishdagi birinchi mexanizm bu ota-oan va maktab va o'qituvchi orasidagi to'g'ri yo'lga qo'yilgan aloqalar mexanizmidir. Bu mexanizm yo'lga qo'yilsa bolalar hech bir vaqt o'zları bee'tibor qolishmaydi.keyingi mexanizm bu - sog'lom muhit mexanizmi. Bunda oiladagi muhit sog'lom bo'lishi kerak, bolalar bo'sh vaqtida nima bilan band, o'rtoqlari kim, vaqtini kim bilan nimlarga sarflayabdi, internetdan nimalar uchun foydalanyabdi kabi

savollarga oilad faqatgina sog'lom muhit tarsi mavjud bo'lgandagina ota-onalarimiz javob topa olishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tadqiqotlar natijasiga ko'ra yana bir tendensiya ko'zga tashlanadiki, agressivligi yuqori bo'lgan o'smirlar ko'p hollarda ekstremal ravishda o'z-o'zini juda yuqori yoki juda past baholash xususiyatiga ega. Noagressiv bolalarga esa o'zini adekvat baholash xarakterlidir.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Маерс Д. Изучаем социальную психологию. — М.: 2009.
2. Мокчанцев Р., Мокчанцева А. Социальная психология. Издательства: Сибирское соглашение, Инфра. — М.: 2001.
3. Семечкин Н.И. Социальная психология на рубеже: история, теория, исследования. — М.: 2001
4. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468474 P.